

ULUG‘BEK XAMDAMNING “MUVOZANAT” ASARIDA INSON RUHIYATI VA HAYOT FALSAFASI TASVIRI

*Termiz davlat pedagogika instituti talabasi
Bobomurodova Dilafro‘z Nizom qizi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri Ulug‘bek Xamdanning “Muvozanat” romani tahlil qilinadi. Asarda inson ruhiy olami, jamiyatdagi adolat, muhabbat va vijdon masalalari falsafiy nuqtai nazardan yoritilgan. Muallif hayotda muvozanatni saqlash g‘oyasini asosiy mazmuniy yo‘nalish sifatida ilgari suradi. Maqolada asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, qahramonlar ichki kechinmalari va yozuvchining psixologik tahlil uslubi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Ulug‘bek Xamdam, “Muvozanat”, ruhiy tahlil, falsafiy roman, vijdon, muvozanat g‘oyasi, badiiy mahorat, zamonaviy o‘zbek adabiyoti.

Annotation

This article analyzes "Muvozanat" ("Balance"), a novel by Ulug‘bek Hamdam, one of the prominent representatives of modern Uzbek literature. The work explores the human soul, justice, love, and conscience in society from a philosophical perspective. The author presents the idea of maintaining balance in life as the main thematic direction. The article examines the ideological and artistic features of the novel, the inner experiences of the characters, and the writer’s psychological analysis technique.

Keywords: Ulug‘bek Hamdam, Muvozanat, psychological analysis, philosophical novel, conscience, balance concept, artistic mastery, modern Uzbek literature.

Аннотация

В данной статье анализируется роман «Мувозанат» («Равновесие») одного из ярких представителей современной узбекской литературы Улугбека Хамдама. В произведении с философской точки зрения рассматриваются духовный мир человека, вопросы справедливости, любви и совести в обществе. Автор выдвигает идею сохранения равновесия в жизни как основное смысловое направление. В статье исследуются идейно-художественные особенности романа, внутренние переживания героев и психологический метод анализа писателя.

Ключевые слова: Улугбек Хамдам, Мувозанат, психологический анализ, философский роман, совесть, идея равновесия, художественное мастерство, современная узбекская литература.

Ulugʻbek Xamdani oʻzbek zamonaviy adabiyotida chuqur falsafiy fikrlar, ruhiy kechinmalar va ijtimoiy muammolarni badiiy tahlil etish mahorati bilan ajralib turadi. Uning “Muvozanat” asari inson va jamiyat, ezgulik va yovuzlik, muhabbat va vijdon, yashash va halokat oʻrtasidagi murakkab ziddiyatlarni falsafiy mushohada orqali ochib beradi.

Asar markazida insonning ichki dunyosidagi notinchlik, hayotda toʻgʻri yoʻlni topish istagi va bu yoʻldagi sinovlar tasvirlanadi. Muallif qahramonlari orqali hayotning maʼnosi, adolat va masʼuliyat haqida chuqur oʻy yuritadi. “Muvozanat” soʻzi asarning mazmuniy markazi boʻlib, unda hayotda barcha narsaning meʼyorini topish, ichki va tashqi dunyo uygʻunligini saqlash gʻoyasi ilgari suriladi. Asarda har bir qahramon alohida xarakter va dunyoqarash bilan ajralib turadi. Asarning boshqahramon Yusuf timsolida ikki oʻt orasida qolgan inson gavdalanitirilgan.

Ustoz M. Qushjonov roman uchun yozgan soʻzboshisida Yusuf haqida shunday deydi:

“...faqat kitob oʻqish va ilm egallash uni har doim ham baxtli qila olmasligini sezadi. U oʻz idealini, hayotga munosabatini oʻzgartirish ustida bosh qotiradi.”

Asarda doʻst tushunchasiga alohida urgʻu berilgan lekin doʻstlik har qanday vaziyatda bir-birini qoʻllab quvvatlashi kerak degani emasmi? Yusuf hayotda haqiqiy doʻstini topdimi? Yoʻq. Bu dunyoda hamma ham nimadir manfaat orqaligina biri biriga yaqin boʻladi va bu asar orqali bu masala aniq misollar orqali ochib berilgan. Bu haqida adabiyotshunos olimi Marxabo Qoʻchqorova shunday yozadi:

“Muallif asarda biz eng oliy tuygʻular deb inongan, gohida unga sajdalar qilgan, emrangan

Muhabbat, Doʻstlik, Birgalik tuygʻular ham naqadar omonat ekanligi fosh etiladi. Yana bir qahramon Amir bu dunyo lazzatlaridan vos kechib faqat dinga va taqvoga mukkasidan ketgan odam. Nega "mukkasidan ketgan" degan ibora qoʻllanildi deyishingiz mumkin? Sababi shundaki, u oilasi, bolalari, ota-onasi xatto oʻzining ehtiyojlarini qondirishga harakat qilmaydi. Boriga shukur qilib yashaydigan inson. Hech qayerda ishlamaydi pul ham topmaydi. Asar oxirida bu qahramon telba boʻlib qoladi va ayanchli qismat orqali yakunlanadi. Amir fojiasi haqida adabiyotshunos Umarali Normatov shunday yozadi: “Amir fojiasi-din, diniyislomiy eʼtiqod bobida haddini bilmagan mutaassib odamning fojiasi. Amirning ayanchli qismati

diniy-islomiy qadriyatlarni tiklash jarayonida yuzaga chiqqan bandai ojizlikning bir koʻrinishi. Asarda Said va Mirazam yaʼni Yusufning kursdosh doʻstlari. Hayotda hamma narsani pul bilan sotib olinadi xatto hurmat- ehtirom, obroʻ-eʼtibor deyadigan insonlar bu ikki qahramon orqali yozuvchi tomonidan mahorat bilan gavdalanitirilgan. Pul, boylik insonni qanchalar oʻzgartirib yuborishi, pulning kuchi nimalarga qodir ekanligini yaqqol koʻrishimiz mumkun.

Ulug‘bek Xamdam uslubi lirizm va falsafiy tahlil uyg‘unligiga asoslanadi. U har bir obraz orqali jamiyatdagi ijtimoiy illatlar, insonning o‘zini anglash jarayonini badiiy tilda ifodalaydi. Asarda ruhiy tahlil, ichki monolog va ramziy timsollar keng qo‘llanilgan.

Akademik M. Qushjonov yozgan so‘zboshida shunday ta’kidlanadi:

“Muvozanat” asari tom ma’nodagi ijodiy va ruhiy ehtiyoj mahsuli sifatida dunyoga kelgan. Muallifning maqsadi roman chop ettirib, ko‘zga tashlanish emas. U hayot haqida, hayotida ro‘y berayotgan keskin burilishlar, o‘ta ziddiyatli voqealar haqida chuqur o‘ylaydi. Faqat o‘ylabgina qolmay, ba’zi narsalardan qanoat hosil qilsa, ba’zilaridan ko‘ngli to‘lmaydi, bu holatlar haqida bezovta bo‘ladi, kuyunadi, qayg‘uradi. Ana shu kuyinish va qayg‘urishlar uni qo‘liga qalam olishga undaydi." Bu asar haqida eng to‘g‘ri va holis berilgan baho desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Haqiqatdan ham asar insonni chuqur o‘ylashga undaydi va jamiyatda bo‘ladigan chirkin o‘yinlarga qarshi norozi kayfiyat uyg‘otadi.

Roman bugungi o‘zbek adabiyotida insonparvarlik, ruhiy uyg‘onish va ma’naviy barkamollik g‘oyalarini ifodalovchi asarlardan biri sifatida e’tirof etiladi. O. Sharafiddinov “Muvozanat” haqidagi fikrlarini umumlashtirib, shunday deydi:

“Demak, gap bu yerda realizmda yoki modernizmda emas. Gap san’atkorda, uning tafakkurida va mahoratidadir. Adabiy asar esa chinakam asar bo‘lishi uchun — u realizmga mansubmi, romantizm uslubidami yoki boshqa modernistik yo‘nalishdami — bari bir, yana takror aytaman, uning markazida inson turmog‘i kerak. Kitobxon insonning taqdiri, tabiati, hayoti haqida ma’lum axborot olish bilan birga, asardan estetik zavq ham ola bilsin.”

Asarda 50 dan ortiq personajlar ishtirok etgan. Ular har birning xarakteri boshqa insonda takror bo‘lib kelmaydi. Yozuvchining mahoratini shundan sezib olish mumkin. O. Sharafiddinov shunday yozadi:

“Romanni o‘qib chiqqach, bugungi kun odamini tasvirlashda hali realizmning ochilmagan imkoniyatlari juda ko‘p ekanligiga amin bo‘ldim.”

Ulug‘bek Xamdamning “Muvozanat” romani nafaqat badiiy jihatdan, balki falsafiy mazmuni bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Asar o‘quvchini hayot mohiyati, insoniy qadriyatlar va muvozanatni topish yo‘lida fikr yuritishga chorlaydi. Shu bois, “Muvozanat” zamonaviy o‘zbek nasrining eng muhim falsafiy romanlaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xamdam, Ulug‘bek. Muvozanat. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2009.
2. Karimov, N. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti taraqqiyoti masalalari. — Toshkent: Fan, 2015.

3. Jo'raeva, M. Ulug'bek Xamdam ijodida ruhiy tahlil va badiiy tafakkur. — "Adabiyotshunoslik" jurnali, 2018, №4.
4. Rahmonov, I. O'zbek romanchiligi va falsafiy tafakkur. — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
5. Qo'chqorov, S. Zamonaviy nasrda inson konsepsiyasi. — Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2021.
6. Dilmurod Quronov "Adabiy jarayonida mom sindiromi" "Akademnashr" nashriyoti 2010.

